



A WOMAN IS A SINGER OF THE HEART

Najmiddinova Shakhnoza Utkir qizi¹, Olmas Rasulov²

¹Uzbek State Institute of Arts and Culture, 1st year master's degree in Singing and Dance, National Singing,

²Associate Professor of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5218102>

ARTICLE INFO

Received: 05th August 2021

Accepted: 10th August 2021

Online: 15th August 2021

KEY WORDS

Singer, Choir, conductor, dutor, law, circle, ensemble, composer, leader, alla, yalla

ABSTRACT

This article is about the life and work of Zamira Suyunova, a versatile artist, People's Artist of Uzbekistan, holder of the Order of Labor Glory, who made a worthy contribution to the art of Uzbek national music with her unique work, as well as "Dutorchi girls" About his creative activity in the ensemble.

AYOL QALBI KUYCHISI

Najmiddinova Shaxnoza O'tkir qizi¹, O'lmas Rasulov²

¹O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti, Ashula va raqs mutaxassisligi, milliy qo'shiqchilik kafedrasida 1-kurs magistranti,

²O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti Dotsenti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-avgust 2021

Ma'qullandi: 10-avgust 2021

Chop etildi: 15-avgust 2021

KALIT SO'ZLAR

Xonanda, Xor, derejyor, dutor, qonun, doira, ansambl, bastakor, saraxbor, alla, yalla

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek milliy mo'siqa san'atiga o'zining betakror ijodi bilan munosib hissa qo'shgan, serqirra ijodkor, O'zbekiston Xalq artisti, Mehnat shuhrati ordeni sohibasi Zamira Suyunovaning hayoti va ijodi haqida, shu bilan birgalikda "Dutorchi qizlar" ansambilidagi ijodiy faoliyati haqida so'z boradi.

Ayol nozik xilqat, u qaysi ishga qo'l urmasun noziklik, nafislik ufurib turadi. O'zbek milliy musqa san'atda ham nafislikka yo'g'rilgan ijodlari bilan o'chmas iz qoldirgan ayol hofizalarimizning o'rni beqiyos. O'zbek milliy musiqa sanati gullab yashnashida

bugungi kundagi nufuzi va mavqeyini ortib borishida tabiiyki, Xalima Nosirova, Berda Davidova, Komuna Ismoilova, Habiba Ohunova, Saodat Qobulova kabi san'at ustunlarini hissalari beqiyodir.



Bugungi kunda ana shunday ustozlarning ishlarini muvaffaqiyatli davom ettirayotgan, o'zining sermaxsul ijodi bilan, hush ovozi va hush zaboni bilan o'zbek qo'shiqchilik sanatida mustahkam o'rniga ega bo'lib, bugungi kunda yosh avlodga o'zining beminnat saboqlarini berib kelayotgan san'atkor shubhasiz Zamira Suyunovadir Ustoz Zamira Suyunova 1958-yilda Qashqadaryo vohasining eng so'lim go'shalaridan bo'lmish Kitob tumanining Shotri qishlog'ida dunyoga keladi. Otalari Rajab Suyunov ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi bo'lganlar va aynan Zamira Suyunovaning san'atga qiziqishiga va san'at olamiga olib kirgan birlamchi ustozlari deb o'ylayman. San'atni juda qadirlagan bu tabarruk inson musiqa fani o'qituvchisi yo'q paytlarda musiqa fanidan ham dars berardi hamda qiziqarli mashg'ulotlar o'tqazardi. Dastlab Zamiraga qo'shiqchilikdan otasi ustozlik qilgan.¹ So'ngra Glier nomli Respublika musiqa maktab eternatida musiqa nazaryasi fanidan tahsil oladilar. Zamira Suyunova o'qish davomida qo'shiqdan biroz uzoqlashadilar. Hatto bolaligida bilgan qo'shiqlarini ham unuta boshlaydi.

Bir kuni uyga mehmon kelganda, "Qizim mashhur qo'shiqchi bo'ladi" deb orzu qilib yurgan otasi uni chorlab, birorta ashulani hirgoyi qilib berishini soraydi. Ayta olmaganini ko'rgan Rajab aka biroz ranjiydi. O'ziga kerakli xulosani chiqargan Zamira qo'shiqchi bo'lishni diliga tugadi.² Albatta qaysi sohada bo'lmasin, qay yo'lni tanlamaylik baribir taqdiri azal, allohning aytgani bo'ladi. Taqdir bizga ketma ket ishoralar beraveradi uni payqab ushlab

¹ I. To'xtameshev, "Bir gulshan sahnida...", "Yangi asr avlodi", 2006 yil

² I. To'xtameshev, "Bir gulshan sahnida...", "Yangi asr avlodi", 2006 yil

qolish esa muvaffaqiyatga eltuvchi yo'lni yaqinlashtiradi.

Zamira Suyunova musiqa maktabini tugatgach O'zbekiston davlat konservatoriasi "Xor direjorligi" fakultetiga o'qishga kiradi va 1979- yilda talabalik davridayoq G'anijon Toshmatov nomidagi "Dutorchi qizlar" ansambilida o'z ijodiy faoliyatini boshlaydi. Zamira Suyunova dastlab ansamblda yakkaxon honanda, 1984-yildan musiqa raxbari, 1995- yildan esa badiiy rahbarlik lavozimlarida ishlagan.

Shuni etirof etish kerakki G'anijon Toshmatov nomidagi "Dutorchi qizlar" ansambili ko'plab istedodlarni kashf qildi, ularning aksaryati davlat mukofotlari bilan taqdirlangan xalq suygan sanatkorlar qatoridadir.

Zamira Suyunova ham aynan shu ansambl yulduzi bo'lib xalqqa tanildi. Hayotidagi aksaryat ijodiy saboqlarni shu yerda O'zbekiston xalq artisti G'anijon Toshmatovdan o'rgandi. Xonandaning quyidagi gaplari fikrimiz isbotidir.

"...O'ttiz yildan buyon G'anijon Toshmatovdek buyuk musiqachi ustozning yonida bo'libmiz, ularni yaqindan bilibmiz. Domlani ko'pdan ko'p qo'shiqlarini, katta san'at boyliklarini o'rganibmiz, fikrimizga dilimizga ularning saboqlarini olibmiz."³ va yana ijodi haqidagi suhbatlardan birida san'atkor hayoti va faoliyatida "Dutorchilar" ansambili o'rniga to'xtalib, shunday degan edi: "Agar 1979- yil "Dutorchilar" ansambili bo'lmaganda, kim biladi, hozir hor derejori bo'larmidim..."

³ G'anijon Toshmatov: "Kezib bu olamni kuy va ko'ngil istadim "Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2012. 159 bet.



Xalqimiz ardog'iga erishgan san'atkor G'anijon Toshmatov, Abduhoshim Ismoilov, Komuna Ismoilova kabi ustozlardan saboq oladi va milliy maqom asarlardan "Dugoh husayniy", "Saraxbor", "Talqini bayot", "Ufori buzruk", "Savti chorgoh", "Sarahbori oromijon", "Ufari oromijon" kabi yirik va anchayin mashaqqat talab etadigan asarlarini ijro etganlar. So'zimiz avvalida xonandaga bejizga serqirra ijodkor tarifini bermadik, ular nafaqat maqom ijrochiligi, milliy estrada, o'lan va allalar, bir qancha tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar, tojikcha asarlar, orkestr asarlarini ham mahorat bilan ijro etganlar. Ular dutor va qonun doira kabi cholg'ularini ham chalganlar.

Zamira Suyunova ijod namunalarida o'zbek ayolining dardlarini o'zida mujassamlagan asarlari bilan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlari bilan, shuni alohida etirof etib o'tish kerakki o'zbek millatining o'chmas qadiryati namunasi bo'lmish "Alla" lari bilan, xalqning mehriga sazovor bo'lgan. Uning ijrosidagi bir necha alla turlarini eshitishimiz mumkin va yana o'zbek onalariga murojatnoma sifatida "Alla ayting ayollar" nomli ijod namunasi ham hozirgi kundagi bazibir yosh onalarni tarbiyaviyligi bilan sergaklikka chorlaydi.

Shuni alohida takidlab o'tish kerakki xonanda bastakordir ham. Uning A. Oripov so'zi bilan "Aziz diyor", F.Afroz so'zi bilan "Holing nechuk", xalq so'zi bilan "Kelmading", Navoiy g'azaliga "O'zgacha", "Ko'ngul qayg'urma kim", Z. Ubaydullo omon qizi "Teng tengini topishi", "Alla", Erkin Vohidovning "Vatanni sevmok saodatdur" kabi o'zining ijod namunalari ham xonandaning takrorlamas ijodkorligiga bir ishora desak adashmagan bo'lamiz.

Ijodkorning qo'shiqlarini tinglaganingizda aksaryat asarlarida noziklik, mayinlik, jilo topadi shu boisdanmi tinglovchiga huzur baxshida etadi. Yuraklarni zaft etadi.

Zamira Suyunova ijodi davomida ko'plab Vatan, Ona, Yor-yor, Alla mavzularda va taniqli bastakorlar tomonidan yaratilgan bir qancha jozibador asarlarni ijro etganlar. Jumladan "Oybuloq", "Bilmam adashtim", "Ishonmasang muhabbatimga", "Holing nechuk", "Mushkuldur", "Qoshing qarosi balo", "Bog'i shamol", "Donai holing", "Kelmading", "Ko'nglim", "Dutor hamroh bo'ldi bu kecha", "Ishonasanmu", "Ko'nglim sendadur", "Sizni sevgach", "Ona bo'lib", "Mardlik mangulik", "Mehribonlar suhbat", "Alla ayting ayollar", "Baxtimdan", "Onajon O'zbekiston", "ishq seli" aynan shu kabi asarlarni ijro etib xalqning cheksiz etiborini qozongan, insonlar yuragidan joy olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. U o'z ijodini va o'zbek san'atini nafaqat O'zbekistonda balki ko'plab chet ellarda namoyish qilishdek sharaftga muyassar bo'lgan san'atkorlardandir. Fransiya, Ispanya, Germaniya, Avstrya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Maroqash kabi davlatlar shular jumlasidandir.

Zamira Suyunova musiqa ijrochilik masalasida o'zining ijro uslubini yarata olgan. Olimlar tomonidan etirof etilgan. Shu bois uning serqirra ijodi bunga zamin sifatida xizmat qilib kelmoqda.

2002-yilda Zamira Suyunova o'z faoliyatini O'zbekiston davlat Konservatoryasida davom ettira boshlaydi. Uning ustozlik faoliyati natijalari sifatida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambilida ijod qilib kelayotgan bir qator xonandalar "Dutorchilar" ansmbilida



faoliyat yuritib kelayotgan ko'plab shogirdlarini qayd etish lozimdir. Uning shogirdlari qatorida "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "Nihol" mukofoti sovrindori, "Yosh maqomchilar" ko'rik tanlovi g'oliblari kabi unvonlarga sazovor bo'lgan xonandalar ijod qilib kelmoqda.

Ijodkor alloh yuqturgan istedoddan juda to'g'ri va samarali foydalandi, mehnat qilib, mashaqqat chekib, shu bilan birgalikda ilimning lazzatani tuyib. O'zbek san'atga fidokorona o'z ijodini tuxfa qilib kelmoqda. Shu boisdan Xalqqa qilgan xizmatlari uchun 1990-yili "O'zbekistonda xizmat korsatgan artist" 1999-yilda "O'zbekiston Respublikasi Xalq artisti" 2019- yilda esa "Mehnat shuhrati" ordeni kabi unvonlar bilan taqdirlandi. Uning 2009-yilda nashirdan chiqqan "G'anijon toshmatov" nomli monografik o'quv qo'llanmasi. 2017-yilda chiqqan "An'anaviy xonandalik" (Alla - mehr qo'shig'i) nomli o'quv uslubiy qo'llanmasi va yana bir qancha ilmiy maqolalaridan talabalar, san'at ixlosmandlari, kitobxonlar foydalanib kelyaptilar. 2020- yildan buyon Yunus rajabiy nomidagi O'zbekiston Milliy Maqom San'ati Institutida o'qituvchi dotsent lavozimida yoshlarga an'anaviy xonandalikdan saboq berib kelmoqdalar.

Xulosa: Ustoz Zamira Suyunova hayoti va ijodlari haqida xulosam shundan iboratki, juda ham katta mehnatlar evaziga yuzaga kelgan bu sermahsul o'xshashi yuq ijod yo'lida meni quvontirgan jihat shu bo'ldiki, ijodkorning qo'shiqlaridagi mavzular barchasi ahamyatli, tarbiyaviy hamda xalqqa manfaatlidir. Bu o'lmas asarlar zamonida yashagan muhlislar, hamda unib o'sib kelayotgan yosh avlod

bilan birgalikda yanada yosharib boraveradi. Ayrim shunday asarlar borki, ham sher jihattan, ham kuy jihatdan zamona tanlamaydi bu esa ijodkor uchun katta yutuq biz uchun bunday ijod namunalari o'rganish maktab vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari shuni alohida aytib o'tish lozimki, san'atkorning nafaqat ijodi, hayot yo'li, balki, kiyinish uslubi soch turmaklari, o'zligini saqlab qola olishi, ayrim kibr manmanlikdan yiroqligi shogirdlari nazarida onadek mehribon va suyukligi bizga ibratdur.

Shu o'rinda shuni aytishni lozim topdimki G'anjon Toshmatov nomidagi "Dutorchilar" ansambili xonandasi xush ovoz istedodli xonanda Zamira Suyunovaning suyukli shogirdlaridan biri Yo'ldosheva Umidaning Zamira Suyunovaning ansambil xonasiga kirib kelishi bilan beihitoy aytgan gaplari esimga tushdi: " Ustozim kelishlari bilan huddi xonaga nur kirib kelganga o'xshaydi o'zim bilmayman qandaydir boshqacha his tuyg'ular bo'ladi menda ularni judayam yahshi ko'rganimdan bo'lsa kerak, onamday yaxshi ko'raman ularni". Shu bir kichik jumla inson hayoti haqida hamma gaplarni aytib qo'ygandek nazarimda. Albatta san'at sohasida o'z ishining ustasi istedodli ijodkorlar talaygina ammo, san'at jihatidan ham insoniylik jihatidan ham mukammal bo'la olish bu anchayin mushkul, bunday jihatlar aynan Zamira Suyunovaga xosdir, bu ijodkorning katta bir yutug'i, insoniylikning nafis bir ko'rinishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Albatta bunday insonlar xayotimiz naqshi, shunday insonlarning shogirdi bo'lish esa chinakkamiga baxt desam hechham adashmayman.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. To'xtamishev "Bir gulshan sahnida..." "Yangi asr avlodi", 2006- yil.
2. I. To'xtameshov "Bir gulshan sahnida"
3. G'anijon Toshmatov "Kezib bu olamni kuy va ko'ngil istadim" Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2012. 159-bet.
4. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi 2021-yil 26-fevral №9(4616) Mansur Zoirov.